



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 12.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Isayev Yusufjon Tojimametovich.,
Madrahimov G`ayrat Ne`matjonovich.,
Zokirova Xusniyo Xursandbek qizi
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan

yusufjon_67@inbox.ru

madrahimov7@gmail.com

xusniyoxanzokirova@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-9904-6791>

<https://orcid.org/0009-0008-6151-8811>

<https://orcid.org/0009-0002-7594-6362>

DORIVOR YULG'UN (TAMARIX) O'SIMLIGI TARKIBIDAGI MAKRO- VA MIKROELEMENTLARNI IBP-OES USULIDA ANIQLASH

Abstract: The article presents the results of determining the amount of chemical elements in the bark of stems and flowers of the tamarix plant by induction-coupled plasma optical emission spectrometry (OES-ISP). When comparing the mineral composition of plant raw materials, it was found that the amount of macro- and microelements in the bark of stems is greater than in flowers.

Keywords: tamarisk, macroelements, microelements, inductively coupled plasma optical emission spectrometry.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yulg'un o'simligining novdasi po'stlog'i hamda gullari tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorini induksion bog'langan plazmalı optik emission spektometriya (IBP-OES) usulida aniqlash

natijalari keltirilgan. O'simlik materialining mineral tarkibi o'zaro qiyoslanganda novda po'stlog'i tarkibida makro- va mikroelementlar miqdori o'simlikning gul qismiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: yulg'un (tamarix), makroelementlar, mikroelementlar, induksion bog'langan plazmali optik emission spektometriya.

Аннотация: В статье представлены результаты определения количества химических элементов в коре стеблей и цветках растения гребенщик (тамарикс) методом оптико-эмиссионной спектрометрии с индукционно-связанной плазмой (ОЭС-ИСП). При сравнении минерального состава растительного сырья установлено, что количество макро- и микроэлементов в коре стеблей больше, чем в цветках.

Ключевые слова: тамариск, макроэлементы, микроэлементы, оптико-эмиссионная спектрометрия с индуктивно связанной плазмой.

Language: Uzbek

Citation Isayev , Y., Madrahimov , G., & Zokirova , H. (2024). DETERMINATION OF MACRO- AND MICROELEMENTS IN THE MEDICINAL TAMARIX PLANT USING IBP-OES METHOD. Universal International Scientific Journal, 1(9), 75–80. <https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.86.98.001>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14512328>

Crosreff doi: <https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.86.98.001>

Kirish: Bugungi kunda butun dunyoda aholi salomatligi bilan bog'liq masalalar juda muhim va ahamiyatli bo'lib, davlat va jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Inson organizmi o'zini yaxshi xis etishi, ruhiy sog'lom, aqliy va jismoniy ish qobiliyatini saqlab turishi uchun unga biogen moddalar, jumladan, makro- va mikroelementlar zarur bo'ladi.

Aholi salomatligi taminlash uchun, aholi va jamiyatning xususiyatlarini inobatga olgan holda tabiiy dori darmonlarga bo'lgan talab nihoyatta ortmoqda. Yurtimiz shifobaxsh, foydali o'simliklarga juda boy. Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga

bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi.

Dorivor o'simliklarning turilari ko'p bo'lib, xalq tabobati va tibbiyotda keng qo'llaniladi. Dorivor o'simliklardan biri bo'lgan yulg'un (Tamariks yoki Tamarisk) - yulg'undoshlar oilasiga mansub bo'lgan buta yoki daraxt hisoblanadi. Bo'yi 6 metr gacha o'sadi, barglari mayda, ninasimon. Gullari mayda, oq, pushti yoki binafsha rangda, uzun shingilsimon to'pgulga yig'ilgan. Yulg'un aprel - may oylarida gullaydi. Mevasi sentyabr oyida pishadi. Mevasi 3-5 pallali ko'sakcha. Po'stlog'ida 8% ga yaqin, bargida 11-12 %, mevasida 24.8 % oshlovchi moddalar borligi olimlar tomonidan aniqlangan [1]. Janubiy Yevropa, Janubiy Afrikaning cho'l, chala

cho'llarida va Osiyoda (Hindistongacha) 54 turi tarqalgan. Rossiyaning janubi, Kavkaz, Qozog'iston va O'rta Osiyoning daryo va soy bo'ylarida, to'gay o'rmonlarida, chakalakzorlarda, ko'l va dengiz qirg'oqlarida uchraydi. Butasimon yulg'un yoqilg'i sifatida hamda ko'chma qumlarni mustahkamlash uchun ekiladi, yog'ochidan tokarlikda va o'ymakorlik ishlarida foydalaniladi, novdasidan turli buyumlar to'qiladi. Yulg'un yaxshi asal beruvchi o'simlik, ba'zi turlari manzarali. Tez o'sadi, urug'i, ildiz bachkisi va qalamchalaridan ko'paytiriladi [1,3].

Xalq tabobatida po'stlog'i, ildizidan tayyorlangan qaynatma ko'p dardlarni davolashda qo'llaniladi. Tutuni xo'l yaralar va chechakni quritadi. Yanchilgani va kuli olovdan kuyganga va xo'l yaralarga sepiladi. Mevasi va guli bitishi kiyin yaralarni quritadi. Yaprog'i, ayniksa, mevasi qaynatmasi bilan og'izni chayib turilsa, tish og'rig'ini, tishlarning yemirilishini to'xtatadi. Surunkali balg'am tuflashda, ayniksa, mevasi juda foydali.

Yulg'un (tamarix) ekstrakti turli bakteriyalar, mikroblar, zamburug'larga qarshi faollikka ega ekanligi aniqlangan bo'lib, bu ularni infeksiyalarni davolash uchun antibakterial faolligini ko'rsatib beradi. Yallig'lanishni oldini olish, hamda turli yara kasalliklarini davolashda samarali vosita ekanligi aniqlangan. Shuningdek sintetik dori

vositalaridan ancha foydali hisoblanadi. Biologik faolligi va fitokimyoviy tarkibiga ko'ra, yulg'un (tamarix) o'simligi tibbiyot va boshqa sohalarda bir nechta potentsial qo'llanmalarga ega. Masalan tibbiyotda yulg'un ekstraktidan yallig'lanish, infeksiyalar va yaralar kabi kasalliklar uchun tabiiy vosita sifatida ishlatilinsa, kosmetologiya sohasida esa yulg'un ekstraktlarining antioksidant va yallig'lanishga qarshi xususiyatlari tufayli terini parvarish qilish mahsulotlari sifatida ishlatilishi mumkin. Foydalanish davomida terini shikastlanishdan himoya qiladi va yallig'lanishni kamaytiradi. Tabiiy va samarali teri parvarish vositasi sifatida qo'llaniladi. Shuni takidlash kerakki ushbu maqsadlar uchun yulg'un ekstraktining xavfsizligi va samaradorligini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqot ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [4].

Bundan tashqari yulg'un agrosanoat uchun ham muhim bo'lib undan qishloq xo'jaligida tuproqni barqarorlashtirish va eroziyaga qarshi kurashda foydalanish iqtisodiy samaradordir, Ayniqsa qurg'oqchil va tuproq sho'rlangan muhitda ishlatilishi mumkin. Fikrimizcha yurtimizdagi chala cho'l mintaqalari va cho'llashib borayotgan ayrim hududlarning tuproq namligini saqlash uchun yulg'un ko'chatlarini ekish yurtimizning ekologik farovonligini taminlashga bevosita

xizmat qiladi.

Uning kimyoviy tarkibi aniqlanishicha, yulg'un (tamarix) efir moyining tarkibi juda o'ziga xosdir tarkibida uglevodorodlar (9.51%), spirtlar (3.46%), aldegidlar (2.55%), monoterpen uglevodorodlar (5.4%), kislorodli terpenlar (23.06%), kislorodli diterpenoidlar (3.37%), shuningdek, sezilarli miqdorda yog' kislotalari va ularning efirlari (45.43%), Efir moyining asosiy komponentlari tetragidrogeranilaseton (21.35%) va digidroaktindiolid (5.40%) ga to'g'ri keladi[5].

O'tkazilgan tajribalar natijasidagi olingan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, yulg'unning guli va novdasining po'stloq qismida makroelementlar ko'p miqdorda uchraydi. Jumladan: o'simlik guli tarkibida P 307058,6 mg/kg, Ca 30584,82 mg/kg, Mg 440362,51 mg/kg, Na 724362,24 mg/kg va K 1140473,51 mg/kg miqdorda, o'simlik novdasi po'stlog'i tarkibida esa P 2 484 624,88 mg/kg, Ca 224 698,99 mg/kg, Mg 314336,24 mg/kg, Na 121 807,33 mg/kg, K 366 027,29 mg/kg miqdorda mavjuddir. O'simlik novdasi po'stlog'idag'ida P ko'p miqdorda uchrasa, yulg'un gulida esa Mg, Na, K makroelementlarning miqdori yuqori ekanligi aniqlandi.

Makroelementlar qatorida yulg'un o'simligining mikroelementlar miqdori ham o'rganildi. O'simlikning guli va novdasining

po'stloq qismidagi mikroelementlar nisbati bir biridan keskin farq qiladi. Jumladan: o'simlik guli tarkibida Al 21217,96 mg/kg, Sn 2331,36 mg/kg, Zn 4621,28 mg/kg, B 4123,06 mg/kg va Si 13855,7 mg/kg Mn 3618,87 mg/kg, Fe 37235,91 mg/kg, Cu 1224,43 mg/kg, Ti 609,29 Sr 10573,29 mg/kg, Ba 534,02 mg/kg, Cs 770,12 mg/kg, Cr 770,12 mg/kg miqdorda, o'simlik novdasi po'stlog'i tarkibida esa yuqoridagi mikroelementlar miqdoridan keskin farq qiluvchi natijalar olindi. Masalan: Al miqdori 3452884,22 mg/kg, Si 72636,39 mg/kg, Fe 59200,81 mg/kg, Ba 1169,09 mg/kg, Cs 1 943,85 mg/kg bo'lib bu gul qismidagi miqdordan ancha yuqoridir, Zn 2128,05 mg/kg, Sr 9738,14 mg/kg, Ti 609,29 mg/kg, miqdorda mavjud bo'lib bu gul qismidagi miqdordan oz ekanligi o'rganildi. Novda qismida Rb 2628,82 mg/kg, Ni 2813,14 mg/kg, Re 6112,37 mg/kg, Co 1462,38 mg/kg, Sm 1125,65 mg/kg miqdorda aniqlangan bo'li gul qismida bu mikroelementlarning miqdori aniqlanish minimumidan kichik ekanligi aniqlandi.

TAJRIBA QISM: Bizning tadqiqot ishlarimizda Yulg'un o'simligi guli va novda po'stlig'i tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorini induksion bog'langan plazmali optik emission spektometriya usulida aniqlandi. Mineral tarkibini aniqlash uchun Andijon viloyati hududida o'suvchi dorivor yulg'un o'simligidan namunasidan foydalanildi.

Terilgan na'munalar salqin joyda quritildi.

O`simlik tarkibidagi elementlarni aniqlash induksion bog`langan plazmali optik emission spektrometrida amalga oshirildi. Olingan natijalarni tahlil qilish QTegra ISDS dasturida bajarildi. Buning uchun tekshirilayotgan Oldindan quritilgan, maydalangan, 0,001 g yulg'un o`simligining maydalangan po'stlog'i aniqlikdagi tarozida 1 g tortib olinib, chinni tigelda quruq kul olish metodida mufel pechda 500oC gacha qizdirish bilan kul olindi. Bunda dastlab 500oC gacha 100oC/soat tezlikda qizdirildi va 5 soat 500oC haroratda ushlab turildi. Hosil bo`lgan kul ICP-MS tozalikdagi 6 ml konsentrlangan HNO₃ va 2 ml 60 % li H₂O₂ ta`sirida minerllastirildi. Sovitilgan eritma 100 ml hajmli polipropilen o`lchov kolbasiga o`tkazilib, ultra toza suv bilan chizig`iga yetkazildi. Mazkur ishchi eritmada shpirtsli filtr yordamida filtrlanib analiz uchun foydalanildi. Na'munalar tarkibidagi asosiy makroelementlar va mikroelementlar tarkibi alohida o`rganilganda quyidagi natijalar olindi (1-2 jadvallar).

1-jadval

Yulg'un (*tamarix*) o`simligi guli va novda po'stlog'i tarkibidagi asosiy makroelementlar miqdori(mg/kg)

Makroelementlar miqdori(mg/kg)		
Element nomi	Gullari	Novdasining po'stlog'i
P	307058,6	2 484 624,88
Ca	30584,82	224 698,99
Mg	440362,51	314 336,24
Na	724362,24	121 807,33
K	1140473,51	366 027,29

Yulg'un o`simligining guli va novda po'stloq qismi tarkibidagi asosiy mikroelementlar miqdori o`rganilgan bo`lib olingan natijalar jadval shaklida keltirilgan.

2-jadval

Yulg'un (*tamarix*) o`simligi guli va novda po'stlog'i tarkibidagi asosiy mikroelementlar miqdori (mg/kg)

Mikroelementlar miqdori(mg/kg)		
Element nomi	Gul qismi	Novda po'stlog'i
Al	21217,96	3452884,22
Sn	2331,36	1123,17
Zn	4621,28	2128,05
Rb	<LOQ	2628,82
Pb	123,4	248,32
Ni	<LOQ	2813,14
Re	<LOQ	6112,37
Co	<LOQ	1462,38
B	4123,06	1515,02
Si	13855,70	72636,39
Mn	3618,87	3456,94
Fe	37235,91	59200,81
Cu	1224,43	649,25
Ti	609,29	1208,86
Sm	<LOQ	1125,65
Sr	10573,29	9738,14
Ba	534,02	1169,09
Cs	770,12	1 943,85
Cr	770,12	584,04

* Izoh: <LOQ – natija aniqlash minimumidan kichik

XULOSA

Shunday qilib, Andijon tumani hududidan yig`ib olingan dorivor yulg'un o`simligi bargi va poyalarining mineral tarkibi bog`langan plazmali optik emission spektrometriya (ICP-MS) metodi yordamida aniqlandi. Bunda o`simlik takibida jami 63 xil element mavjudligi, bulardan P, Ca, K, Na, Mg miqdori ko`proq ekanligi qayd etildi. Olingan ma`lumotlar o`simlikning biologic faolligini tasdiqlaydi.

Ushbu ma`lumotlar asosida inson organizmida makro- va mikroelementlar bilan bog`liq ko`plab kasalliklarni oldini olishga va davolashda yordam beruvchi tabiiy vositalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.R.Asqarov. Tabobat qomusi. - Toshkent. Mumtoz so‘z 2019. 1142 b.
2. Alshehri, S.A., Wahab, S., Abullais, S.S., Das, G., Hani, U., Ahmad, W., Amir, M., Ahmad, A., Kandasamy, G., Vasudevan, R. Pharmacological Efficacy of *Tamarix aphylla*: A Comprehensive Review. *Plants* 2022, 11, 118. <https://doi.org/10.3390/plants11010118>.
3. В. Шуйская, М.П. Лебедева, А.В. Колесников, Т. И. Борисочкина, К.Н. Тодерич. Химический состав солей выделяемых тамариксом (*Tamarix ramosissima*), произрастающим в условиях различного засоления почв. Бюллетень Почвенного института им. В.В.Докучаева. 2016;(82):110-121. <https://DOI:10.19047/0136-1694-2016-82-110-121>
4. Roodabeh Bahramsoltani, Mahdieh Kalkhorani, Sayed Mohd Abbas Zaidi, Mohammad Hosein Farzaei, Rahimi Roja. The genus *Tamarix*: Traditional uses, phytochemistry, and pharmacology. *Journal of Ethnopharmacology*. Volume 246, 10 January 2020, 112245 <https://doi.org/10.1016/j.jep.2019.112245>
5. А.В. Великородов, В.Н. Пилипенко Т.А. Пилипенко А.Г. Тырков. Изучение химического состава эфирного масла тамарикс. *Химия растительного сырья*. 2017. 4. 117-121; <https://DOI:10.14258/jcprm.2017042041>.